ACADEMIC SPECTRUM
A.S.
SCIENCE • EDUCATION • HUMANITY

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
SCIENCE UNITES PEOPLE

ACADEMIC SPECTRUM

ILMIY-METODIK JURNAL

ISSN
3093-9089

2026
YIL

9
SON

Knowledge
Education
People
Better Future

PEDAGOGIKA | PSIXOLOGIYA | TA'LIM | IJTIMOIY FANLAR

SCIENCE
INSPIRES
HUMANITY

TA'LIM
TADQIQOT
AMALIYOT
RIVOJLANISH

PEDAGOGY
PSYCHOLOGY
EDUCATION
SOCIAL SCIENCES
METHODOLOGY
HUMAN DEVELOPMENT

Ideas Today
A Better Tomorrow

ILM
KNOWLEDGE

INSON
HUMANITY

INNOVATSIVA
INNOVATION

RIVOJLANISH
DEVELOPMENT

HAMKORLIK
PARTNERSHIP

Science changes lives

BUXORO – 2026

ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 9-Son 2026-yil

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026-yil 24-sentabrdagi 390/3-son qaroriga muvofiq, jurnal pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich - Texnika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O’quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Xamidov Akmal Amrulloyevich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari)

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi professori).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri)

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Mas’ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich — Doctor of Technical Sciences, Professor.

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Khamidov Akmal Amrulloyevich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович — доктор технических наук, профессор.

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

Хамидов Акмал Амруллоевич — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Косимов Убайдулла Ахрорович — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Murodilloyev Nodir Baxodir o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0007-2860-1288

RAQAMLI MULOQOT SHAROITIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI EMOTSIONAL INTELLEKT ASOSIDA KONSTRUKTIV BOSHQARISH: XALQARO DALILLAR TAHLILI VA AMALIY MODEL

Annotatsiya. *Maqolada raqamli muloqot sharoitida pedagogik konfliktlarning xususiyatlari va ularni emotsional intellekt asosida konstruktiv boshqarish imkoniyatlari tahlil qilingan. Elsevier nashrlaridagi maqolalar, Stenford, Yel va Sidney universitetlari tadqiqotlari va OECD TALIS 2024 ma’lumotlari asosida ohangning noto‘g‘ri talqini, doimiy onlayn bo‘lish bosimi, sun’iy intellekt bilan bog‘liq ishonchsizlik hamda kiberagressiya asosiy xavf omillari ekani ko‘rsatilgan. Oliy ta’lim uchun “5T” amaliy modeli va muloqot reglamenti taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muloqot, emotsional intellekt, empatiya, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik talab, pedagogik konflikt, konstruktiv boshqarish, sun’iy intellekt, akademik halollik, raqamli farovonlik.*

Муродиллоев Нодир Баходир угли
Ташкентский государственный университет востоковедения Преподаватель-стажёр кафедры педагогики и психологии

КОНСТРУКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ КОНФЛИКТАМИ НА ОСНОВЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДАННЫХ И ПРАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

Аннотация. *В статье анализируются педагогические конфликты в условиях цифровой коммуникации и возможности их конструктивного разрешения на основе эмоционального интеллекта. На материале журналов Elsevier, исследований Стэнфордского, Йельского, Сиднейского университетов и данных OECD TALIS 2024 выявлены ключевые факторы риска: ошибочное прочтение тона, давление постоянной доступности, недоверие из-за искусственного интеллекта и киберагрессия. Предложены практическая модель «5Т» и регламент цифровой коммуникации для вуза.*

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, эмоциональный интеллект, эмпатия, культура педагогического общения, педагогическое требование, педагогический конфликт, конструктивное управление конфликтом, искусственный интеллект, академическая честность, цифровое благополучие.*

Murodilloev Nodir Baxodir o‘g‘li
Tashkent State University of Oriental Studies Trainee Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

CONSTRUCTIVE MANAGEMENT OF PEDAGOGICAL CONFLICTS THROUGH EMOTIONAL INTELLIGENCE IN DIGITALLY MEDIATED COMMUNICATION: AN ANALYSIS OF INTERNATIONAL EVIDENCE AND A PRACTICAL MODEL

Abstract. *The article analyses pedagogical conflicts in digitally mediated communication and how emotional intelligence supports their constructive management. Drawing on Elsevier journals, studies from Stanford, Yale and Sydney universities, and OECD TALIS 2024 data, it identifies*

misread tone, always-on pressure, AI-related distrust and cyber-aggression as key risks. A practical “5T” model and a communication protocol for universities are proposed.

Keywords: *digital communication, emotional intelligence, empathy, pedagogical communication culture, pedagogical demand, pedagogical conflict, constructive conflict management, artificial intelligence, academic integrity, digital well-being.*

Kirish: So‘nggi yillarda pedagogik muloqotning sezilarli qismi auditoriyadagi bevosita muloqotdan raqamli kanallarga ko‘chdi: topshiriqlar ta’lim platformalarida beriladi, tezkor savollar Telegram guruhlarida so‘raladi, baho bo‘yicha e’tirozlar elektron xatda bildiriladi, mashg‘ulotlarning bir qismi videoaloqa orqali o‘tadi. O‘zbekistonda 2025-yil oktabr holatiga ko‘ra 33,1 mln internet foydalanuvchisi qayd etilgan, bu aholining qariyb 89 foizini tashkil etadi [1]. Demak, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat endi faqat yuzma-yuz emas, balki tobora ko‘proq qisqa yozma hamda asinxron xabarlar orqali shakllanmoqda.

Bu o‘zgarish o‘qituvchining hissiy yuklamasi allaqachon yuqori bo‘lgan davrga to‘g‘ri keldi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 55 ta ta’lim tizimida o‘tkazilgan TALIS 2024 tadqiqotiga ko‘ra, OECD mamlakatlarida o‘qituvchilarning o‘rtacha 19 foizi ish jarayonida stressni “juda ko‘p” his qiladi; stress manbalari orasida ma’muriy ishlar (52 %), intizomni saqlash (45 %), ota-onalarning e’tirozlariga javob berish (42 %) va o‘quvchilar tomonidan og‘zaki haqorat (18 %) bor, o‘qituvchilarning atigi 44 foizi esa o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga o‘zini tayyor deb hisoblaydi [2].

Bunga generativ sun’iy intellekt (SI) bilan bog‘liq yangi ziddiyatlar qo‘shildi. Buyuk Britaniyada 1 041 nafar talaba o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ularning 92 foizi SI vositalaridan foydalanishi, 88 foizi esa ulardan baholanadigan topshiriqlarda foydalanganini ma’lum qilgan (2024-yilda — 53 %) [3]. Avstraliyadagi 337 nafar talaba ishtirokidagi tadqiqotda talabalarning uchdan biridan ko‘pi topshiriq bajarishda chatbotdan yordam olgani va buni har doim ham akademik halollikni buzish deb hisoblamasligi aniqlangan [4]. Me’yor noaniq bo‘lgan joyda “o‘zi yozdimi, yo‘qmi” degan bahs tezda shaxsiy nizoga aylanadi.

O‘zbekistonda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun pedagogning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasida ekanini mustahkamlab qo‘ydi [5]. Biroq huquqiy kafolat nizoning oldini olishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini almashtira olmaydi. Pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik takt va konfliktlarga oid an’anaviy o‘quv adabiyotlari asosan yuzma-yuz muloqotga tayanadi; raqamli kanalning o‘ziga xosliklari — noverbal signallarning yo‘qligi, asinxronlik, yozma matnning “muhrlanib qolishi”, kun-u tun aloqada bo‘lish kutilmasi — hamda emotsional intellektga (EI) tayangan amaliy javob algoritmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli muloqot, EI, empatiya, pedagogik talab va konfliktlarni boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha xalqaro empirik dalillarni tahlil qilish hamda oliy ta’lim, xususan, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar (filologiya, tarix, sharqshunoslik) talabalari va o‘qituvchilari uchun amaliy model ishlab chiqish. Buning uchun raqamli muloqotdagi xavf omillarini aniqlash, EI va empatiya bo‘yicha meta-tahliliy dalillarni umumlashtirish, raqamli konfliktlarning tipik holatlarini tizimlashtirish va konstruktiv javob algoritmini taklif etish vazifalari qo‘yildi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar: tadqiqot obyekti — oliy ta’lim muassasasida raqamli va aralash ta’lim sharoitidagi o‘qituvchi–talaba pedagogik muloqoti. **Tadqiqot predmeti** — pedagogik konfliktlarning oldini olish va ularni konstruktiv boshqarishning EI ga asoslangan mexanizmlari.

Tadqiqot integrativ analitik sharh dizayni asosida bajarildi. Manbalar ScienceDirect (Elsevier), PubMed, DOAJ bazalari va nashriyot saytlaridan “emotional intelligence”, “teacher burnout”, “conflict management”, “computer-mediated communication”, “empathic discipline”, “AI text detectors” kalit so‘zlari bo‘yicha tanlandi. Kiritish mezonlari: taqrizdan o‘tgan nashr yoki xalqaro tashkilotning rasmiy hisoboti; meta-tahlil, randomizatsiyalangan dala eksperimenti yoki katta tanlanmali tadqiqot dizayni; miqdoriy ko‘rsatkichlar hamda DOI yoki barqaror havolaning mavjudligi; nashr yili asosan 2015–2025. Elektron xatda ohangni talqin qilishga oid fundamental eksperiment (2005) metodologik ahamiyati tufayli istisno sifatida kiritildi. Tahlilga 21 ta manba

olindi: ulardan 7 tasi Elsevier jurnallarida chop etilgan, 12 tasi Stenford, Yel, Sidney, Oksford, Illinoys, Chikago, Nyu-York, Indiana, Quddus Ibroniy va Koreya universitetlari olimlari tomonidan bajarilgan. Qiyosiy tahlil, ikkilamchi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, tipologiyalash va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

1. Raqamli pedagogik muloqotning yangi xavf omillari

Birinchi muhim omil — yozma xabarda ohangning noto‘g‘ri talqin qilinishi. 154 juft talaba ishtirokidagi eksperimentda xabar oluvchilar elektron xatdagi kinoya, jiddiylik, g‘azab yoki qayg‘uni 89,3 foiz to‘g‘ri tushunganiga ishongan, amalda esa 62,8 foizini to‘g‘ri aniqlagan; yuzma-yuz muloqotda bu ko‘rsatkich 73,9 foiz bo‘lgan [6, b. 930]. Mualliflar buni egotsentrizm bilan izohlaydi: yozuvchi o‘z xabarini “ichki ovoz” bilan eshitadi, o‘quvchi esa bu ovozni eshitmaydi va matnga ohangni o‘zi beradi. O‘zbek muloqot madaniyatida salom-alik, “siz”lash, “ustoz”, “domla” kabi murojaat shakllari munosabat belgisi vazifasini bajaradi. Shu bois salomsiz yozilgan “Baho qachon chiqadi?” degan xabarni talaba ixchamlik deb biladi, o‘qituvchi esa hurmatsizlik deb qabul qilishi mumkin; nizo ana shu ikki talqin to‘qnashuvidan boshlanadi.

Ikkinchi omil — videomuloqot charchog‘i. Stenford universiteti olimlari ishlab chiqqan shkala bu charchoqning umumiy, ijtimoiy, hissiy, ko‘rish va motivatsion turlarini ajratadi [7]. 9 787 nafar ishtirokchi ma’lumotlariga ko‘ra, videouchrashuvlar qanchalik tez-tez, uzoq va tanaffussiz bo‘lsa, charchoq shunchalik kuchayadi; bunga o‘z tasvirini doimiy ko‘rishdan kelib chiqadigan “ko‘zgu xavotiri”, ko‘plab yuzlar tikilib turgandek tuyulishi, kadrda “qamalib qolish” hissi hamda noverbal signallarni berish va kuzatishga ketadigan zo‘riqish ham sabab bo‘ladi; ayollar bu mexanizmlarni kuchliroq boshdan kechiradi [8]. Demak, kamerasini yoqmagan talabani darhol “hurmatsiz” deb baholash ko‘pincha noto‘g‘ri atributsiya bo‘lib, keraksiz nizoga yo‘l ochadi.

Uchinchi omil — ish vaqtidan tashqaridagi raqamli talablar. 546 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi besh hafta davomida kundalik yuritgan tadqiqotda ish vaqtidan keyingi xabar va qo‘ng‘iroqlar salbiy ruminatsiya (xayolda ish muammolarini qayta-qayta “aylantirish”), salbiy kayfiyat va uyqusizlikni kuchaytirgani, ota-onalarning tezkor javob kutishi bunday talablarni oshirgani, o‘qituvchining ish va shaxsiy hayot chegarasini nazorat qila olishi esa salbiy ta’sirni yumshatgani aniqlangan [9]. Quddus Ibroniy universiteti tadqiqotida (187 nafar o‘qituvchi so‘rovi va 11 ta intervyu) ijtimoiy tarmoqdagi o‘qituvchi–o‘quvchi aloqasi akademik, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-munosabat maqsadlariga xizmat qilishi bilan birga, shaxsiy hayot daxlsizligi va o‘qituvchi nufuziga oid dilemmalarni ham yuzaga chiqarishi ko‘rsatilgan [10].

To‘rtinchi omil — kiberagressiya. Chexiyada 5 136 nafar o‘qituvchi ishtirokidagi milliy tadqiqotda respondentlarning 21,73 foizi kiberhujumga uchragani, 3,52 foizi so‘nggi 12 oyda bir haftadan ortiq davom etgan kiberbullingni boshdan kechirgani, hujumlarning eng katta qismi (34,92 %) o‘quvchilar tomonidan sodir etilgani aniqlangan [11, b. 103]. SI vositalari soxta tasvir va matn yaratishni osonlashtirgani bu xavfni yanada kuchaytirishi mumkin.

Beshinchi omil — SI-detektor xulosasiga asoslangan ayblov. Stenford universiteti olimlari yetti ommabop detektorni sinab, ular AQSh maktab o‘quvchilarining 88 ta inshosini deyarli xatosiz baholagani holda, ingliz tili ona tili bo‘lmagan mualliflarning 91 ta TOEFL (ingliz tilini chet tili sifatida bilish testi) inshosini o‘rtacha 61,22 foiz hollarda “SI yozgan” deb noto‘g‘ri belgilaganini, insholarning 97,8 foizi kamida bitta detektor tomonidan shunday deb topilganini aniqlagan [12]. Ingliz tilida esse yozadigan filolog va sharqshunos talabalar uchun bu asossiz ayblov xavfini e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi: detektor xulosasining o‘zi ayblov uchun yetarli dalil bo‘la olmaydi. Aniqlangan omillar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Raqamli pedagogik muloqotdagi xavf omillari: xalqaro empirik dalillar

Xavf omili	Tadqiqot va tanlanma	Asosiy ko‘rsatkich	Pedagogik xulosa
Ohangning noto‘g‘ri talqini	Kruger va b., 2005 [6]; 154 juft talaba	Ishonch — 89,3%, amaldagi aniqlik — 62,8% (e-pochta); yuzma-yuz — 73,9%	Nozik masalani ovozli yoki yuzma-yuz kanalga o‘tkazish

Xavf omili	Tadqiqot va tanlanma	Asosiy ko‘rsatkich	Pedagogik xulosa
Videomuloqot charchog‘i	Fauville va b., 2023 [8], Stenford; 9 787 kishi	Chastota, davomiylik, tanaffus yo‘qligi va “ko‘zgu xavotiri” charchoqni oshiradi	Kamera bo‘yicha moslashuvchan qoida, muntazam tanaffus
Ish vaqtidan tashqari xabarlar	Park va b., 2020 [9], Illinoys; 546 o‘qituvchi, 5 hafta	Ruminatsiya, salbiy kayfiyat, uyqusizlik ortadi; chegara nazorati himoya qiladi	Javob berish vaqtini reglamentlash
Kiberagressiya	Kopecký, Szotkowski, 2017 [11]; 5 136 o‘qituvchi	21,73% — kiberhujum; 3,52% — kiberbulling; hujumlarning 34,92% — o‘quvchilardan	Guruh qoidalari, rasmiy javob tartibi
SI-detektor ayblovi	Liang va b., 2023 [12], Stenford; 91 + 88 insho	O‘rtacha 61,22% soxta ijobiy natija; 97,8% — kamida bitta detektorda	Ayblov emas — suhbat va jarayon dalillari
O‘qituvchi stressi	OECD TALIS 2024 [2]; 55 ta ta’lim tizimi	19% — “juda ko‘p” stress; 52% — ma’muriy ish; 45% — intizom	EI va stressni boshqarishga tayyorlash

Izoh: SI — sun’iy intellekt; EI — emotsional intellekt; OECD TALIS — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining o‘qituvchilar va o‘qitish bo‘yicha xalqaro tadqiqoti (Teaching and Learning International Survey).

2. Emotsional intellekt va empatiya: dalillar nimani ko‘rsatadi?

EI — o‘z va o‘zgalar hissiyotini payqash, tushunish va boshqarish qobiliyati — talabaning o‘qishi, o‘qituvchining farovonligi va konfliktdagi xulq bilan bog‘liq ekani yirik meta-tahlillarda tasdiqlangan. Sidney universiteti boshchiligida 158 ta nashr (42 529 nafar o‘quvchi va talaba) asosida bajarilgan meta-tahlilga ko‘ra, EI va akademik muvaffaqiyat o‘rtasida kichik-o‘rtacha darajadagi bog‘liqlik bor ($\rho = 0{,}20$; qobiliyat sifatida o‘lchangan EI uchun $\rho = 0{,}24$); hissiyotlarni tushunish va boshqarish ko‘nikmalari intellekt va shaxs xususiyatlari hisobga olingandan keyin ham dispersiyaning qo‘shimcha 3,9 va 3,6 foizini tushuntiradi. EI intellekt va vijdonlilikdan (mas’uliyatlilikdan) keyin uchinchi eng muhim omil bo‘lib, gumanitar fanlarda tabiiy fanlarga qaraganda kuchliroq ahamiyat kasb etadi [13, b. 150]. Mualliflar buni o‘quv hissiyotlarini boshqarish, munosabatlar qurish va fan mazmunining EI bilan kesishishi orqali izohlaydi: matn ortidagi niyatni yoki tarixiy shaxs motivini tushunish hissiy tushunish ko‘nikmasiga tayanadi.

Emotsional intellekt o‘qituvchining kasbiy farovonligi bilan ham bog‘liq. Malaga universiteti olimlarining tizimli sharhida (13 ta tadqiqot) EI bilan kasbiy “yonib ketish” o‘lchamlari o‘rtasida salbiy bog‘liqlik qayd etilgan [14, b. 121]. Portugaliyada 382 nafar o‘qituvchi ishtirokidagi tadqiqot EI darajasi yuqori o‘qituvchilar sinfdagi nizolarda integratsiya (hamkorlik) va murosa strategiyalaridan ko‘proq foydalanishini ko‘rsatgan [15].

Shuningdek, emotsional intellekt va empatiyani rivojlantirish imkoniyati mavjud. 58 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlil EI treninglarining o‘rtacha darajadagi ijobiy samarasini tasdiqlagan; bu samara ishtirokchilarning jinsi va EI o‘lchov turiga deyarli bog‘liq emas [16, b. 140]; qo‘shimcha tahlil esa amaliy mashq va qayta aloqa mavjud treninglar faqat ma’ruzaga asoslanganlaridan samaraliroq ekanini ko‘rsatadi [16]. Yel universiteti olimlari 53 mamlakatdagi 424 ta tadqiqot (575 361 o‘quvchi) bo‘yicha meta-tahlilda ijtimoiy-hissiy ta’lim dasturlari ko‘nikmalar, munosabatlar, xulq-atvor, ta’lim muhiti va xavfsizligi, tengdoshlar bilan munosabat hamda o‘zlashtirishni sezilarli yaxshilaganini qayd etgan [17, b. 1181]. Indiana universiteti tadqiqotchilari AQSh yoshlarida empatiya 2000–2007-yillarda pasayib, 2008-yildan keyin yana o‘sganini aniqlagan [18] — bu natija empatiyaning vaqt davomida o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Empatiya pedagogik talabni bekor qilmaydi — aksincha, uning ta’sirchanligini oshiradi. Stenford universitetida o‘tkazilgan randomizatsiyalangan dala eksperimentida 31 nafar o‘qituvchi intizom masalasida jazolovchi emas, empatik yondashuvni — o‘quvchi nuqtai nazarini qadrlash va munosabatni saqlagan holda yaxshi xulqqa undashni — targ‘ib qiluvchi qisqa onlayn mashg‘ulotdan

o‘tgan. Natijada ularning 1 682 nafar o‘quvchisi o‘rtasida o‘quv yili davomidagi maktabdan chetlatish holatlari 9,6 foizdan 4,8 foizga, ya’ni ikki baravar kamaygan, ilgari chetlatilgan o‘quvchilarning o‘qituvchiga hurmati esa oshgan [19, b. 5221]. Bu natijani pedagogika klassikasida ma’lum bo‘lgan “talabchanlik va hurmat birligi” tamoyilining zamonaviy eksperimental tasdig‘i sifatida qarash mumkin: talab saqlanadi, o‘zgaradigani — uni yetkazish shakli.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning tadqiqotlarda o‘rganilgan yana bir shakli — avtonomiyani qo‘llab-quvvatlovchi o‘qitish. Koreya universiteti olimlari 51 ta intervensiya (ulardan 38 tasi randomizatsiyalangan nazorat sinovi) tahlili asosida o‘qituvchilar bu uslubni o‘rganishi mumkinligini ko‘rsatgan. Uning yetti amaliy shakli — talaba nuqtai nazarini hisobga olish, qiziqishlariga yo‘l ochish, topshiriqni ehtiyojlarga mos taqdim etish, talabning sababini tushuntirish, salbiy hissiyotni tan olish, buyruq emas, taklif tilidan foydalanish va sabr-toqat — talabalarning faolligi va ichki motivatsiyasini, o‘qituvchilarning esa kasbiy qoniqishini oshirib, hissiy toliqishini kamaytiradi [20, b. 54–55]. Demak, talabni asoslab va tanlov bilan yetkazish uning ta’sirchanligini pasaytirmaydi, balki talabaning uni ichdan qabul qilishiga yordam beradi.

EIni rivojlantirishning dalillarga asoslangan tizimli yondashuvlaridan biri — Yel emotsional intellekt markazi ishlab chiqqan RULER modeli. U EIni beshta o‘rgatiladigan ko‘nikma — hissiyotni payqash (Recognizing), uning sababini tushunish (Understanding), aniq nomlash (Labeling), vaziyatga mos ifodalash (Expressing) va boshqarish (Regulating) — sifatida talqin qiladi hamda rahbarlar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni yaxlit qamrab oladi [21]. Asosiy dalillar 2-jadvalda umumlashtirildi.

2-jadval. Emotsional intellekt va empatiya: meta-tahliliy va eksperimental dalillar

Tadqiqot	Dizayn va hajm	Asosiy natija	Amaliy xulosa
MacCann va b., 2020 [13] — Sidney, Oksford	Meta-tahlil: 158 nashr, N = 42 529	ρ = 0,20 (qobiliyat EI — 0,24); gumanitar fanlarda kuchliroq	EI — o‘zlashtirishning 3-muhim omili
Mérida-López, Extremera, 2017 [14] — Malaga	Tizimli sharh: 13 ta tadqiqot	EI va “yonib ketish” o‘rtasida salbiy bog‘liqlik	EI — o‘qituvchi uchun himoya omili
Valente, Lourenço, 2020 [15] — Portugaliya	382 o‘qituvchi, strukturaviy modellashtirish	Yuqori EI → integratsiya va murosa strategiyalari	Konfliktda hamkorlik uslubini o‘rgatish
Mattingly, Kraiger, 2019 [16]	Meta-tahlil: 58 ta tadqiqot	O‘rtacha ijobiy samara; jins va o‘lchov turiga bog‘liq emas	EI o‘rgatiladi: mashq va qayta aloqa
Cipriano va b., 2023 [17] — Yel	Meta-tahlil: 424 tadqiqot, 575 361 o‘quvchi	Ko‘nikma, xulq, muhit va o‘zlashtirish yaxshilangan	Ijtimoiy-hissiy ta’limni dasturga kiritish
Konrath va b., 2025 [18] — Indiana	Kross-temporal meta-tahlil va milliy so‘rovlar	Empatiya 2008-yildan keyin o‘sgan	Empatiya — rivojlantiriladigan sifat
Okonofua va b., 2016 [19] — Stenford	RCT: 31 o‘qituvchi, 1 682 o‘quvchi	Chetlatish 9,6% → 4,8%	Empatik talab jazodan samaraliroq
Reeve, Cheon, 2021 [20] — Koreya	Sharh: 51 intervensiya (38 tasi RCT)	Uslub o‘rgatiladi; talaba faolligi oshadi, o‘qituvchi toliqishi kamayadi	Talabni asoslab, tanlov bilan qo‘yish

Izoh: N — tanlanma hajmi; ρ — tuzatilgan korrelyatsiya koeffitsiyenti; RCT — randomizatsiyalangan nazorat sinovi; “yonib ketish” — kasbiy emotsional toliqish (burnout).

3. Raqamli pedagogik konfliktlar tipologiyasi va “5T” modeli

Tahlil raqamli muhitdagi pedagogik konfliktlarni kelib chiqish manbaiga ko‘ra beshta turga ajratish imkonini berdi: kommunikativ (ohang, murojaat shakli, javob tezligi); baholash bilan bog‘liq (ball, muddat, apellyatsiya); akademik halollik va SI bilan bog‘liq (matn muallifligiga shubha); chegaralar bilan bog‘liq (ish vaqtidan tashqari murojaat, shaxsiy hayot daxlsizligi); ommaviy-guruhiy (Telegram guruhi yoki forumdagi bahsning shaxsiy haqoratga, ba’zan kiberagressiyaga aylanishi). Dastlabki to‘rt turda nizo ko‘pincha “niyat — talqin” uzilishidan boshlansa, beshinchisida guruh oldida “yuzni saqlash” ehtiyoji eskalatsiyani tezlashtiradi.

Ushbu tipologiya va yuqoridagi dalillar asosida raqamli konfliktlarni konstruktiv boshqarishning “5T” modeli ishlab chiqildi (3-jadval). Model RULER ko‘nikmalari [21], empatik intizom [19], avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash [20] va integratsiya strategiyasini [15] yagona amaliy algoritmga birlashtiradi. Uning mantig‘i oddiy: avval o‘z hissiyotini boshqarish, so‘ng vaziyatni aniqlashtirish, keyin munosabatni saqlagan holda talabni aniq qo‘yish.

3-jadval. Raqamli konfliktlarni konstruktiv boshqarishning “5T” modeli (muallif ishlanmasi)

Bosqich	Mazmuni	Raqamli muloqotdagi namuna	Ilmiy asos
1. To‘xta	Hissiyot ostida javob yozmaslik: kamida 20 daqiqa, keskin holatda bir kecha pauza; o‘z hissiyotini nomlash	“Xabaringizni oldim, ertaga soat 10:00 gacha batafsil javob beraman.”	RULER: payqash va nomlash [21]
2. Tushun	Faktni talqindan ajratish, aniqlashtiruvchi savol; ikkinchi xabardan keyin ham keskinlik saqlansa — ovozli yoki yuzma-yuz suhbatga o‘tish	“To‘g‘ri tushundimmi? Siz 2-topshiriq bahosidan norozimisiz?”	Yozma ohang talqinidagi xato [6]
3. Tan ol	Talaba hissiyotini e’tirof etish	“Natija sizni xafa qilganini tushunaman.”	Empatik intizom [19]; salbiy hissiyotni tan olish [20]
4. Talabni aniq qo‘y	Me’yor, uning sababi va ikki muqobil yo‘l	“Mezon o‘zgarmaydi: manbaga havola shart. Ishni juma kuni qayta topshirishingiz yoki konsultatsiyada himoya qilishingiz mumkin.”	Integratsiya strategiyasi [15]; asoslangan talab [20]
5. Tasdiqla	Kelishuvni qisqa yozma xulosa bilan mustahkamlash, belgilangan muddatda qayta aloqa	“Kelishdik: juma 17:00 gacha qayta topshirasiz, dushanba kuni natijani yozaman.”	Aniq kelishuv takroriy nizoning oldini oladi

Izoh: RULER — hissiyotni payqash, tushunish, nomlash, ifodalash va boshqarish ko‘nikmalari (ingl. Recognizing, Understanding, Labeling, Expressing, Regulating).

Modelning amaliy imkoniyatini ikki tipik vaziyatda ko‘rsatamiz. Birinchi vaziyat: ingliz tilidagi esse detektorda “85 % SI matni” deb baholandi. Destruktiv javob — guruh chatida ochiq ayblash va nol ball qo‘yish. “5T” bo‘yicha o‘qituvchi talaba bilan alohida gaplashadi, qoralama va hujjatning versiyalar tarixini so‘raydi, esse mazmuni bo‘yicha 5–7 daqiqalik og‘zaki himoya o‘tkazadi va qarorni sillabusdagi SI siyosatiga tayanib qabul qiladi. Detektorlarning ona tili bo‘lmagan mualliflarga nisbatan yuqori xatoligi [12] hisobga olinsa, bu yondashuv adolat va o‘zaro ishonchni saqlashga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi vaziyat: tarix fani Telegram guruhida tarixiy shaxs faoliyatini baholash bo‘yicha munozara shaxsiy haqoratga aylandi. O‘qituvchi ommaviy tanbeh bermaydi: avval guruhga umumiy qoidani eslatadi (“fikrga qarshi chiqamiz, shaxsga emas; har bir da’vo manba bilan asoslanadi”), so‘ng tomonlar bilan alohida gaplashadi va keyingi mashg‘ulotda

turli qarashlarni manbalar asosida qiyoslash topshirig‘ini beradi. Shu tariqa nizo ilmiy munozara ko‘nikmasini rivojlantirish imkoniyatiga aylanadi.

Oldindan kelishilgan qoidalar ko‘plab konfliktlarning oldini olishga yordam berishi mumkin. Shu maqsadda har bir fan sillabusiga kiritish uchun raqamli muloqot reglamenti taklif etiladi (4-jadval).

4-jadval. Fan sillabusi uchun raqamli muloqot reglamenti (muallif ishlanmasi)

Element	Tavsiya etilgan me’yor	Asos
Kanallar	Baho va apellyatsiya — rasmiy platforma yoki e-pochta; tezkor e’lonlar — kurs guruhi; shaxsiy masalalar — konsultatsiya soati	Ohang talqini xatolarini kamaytirish [6]
Javob muddati	Ish kunlari 24–48 soat; 20:00–08:00 va dam olish kunlari tezkor javob kutilmaydi	Ish va shaxsiy hayot chegarasi [9]
Xabar shakli	Salom va murojaat; kurs, guruh, topshiriq; aniq so‘rov; imzo	Pedagogik muloqot madaniyati
Videodars	Kamera taqdimot va muhokamada yoqiladi; uzrli holatda chat orqali faol ishtirok; har 45–50 daqiqada tanaffus	Videomuloqot charchog‘i [8]
SI siyosati	Ruxsat etilgan, shartli va taqiqlangan foydalanish turlari yoziladi; shubha bo‘lsa — og‘zaki himoya	Detektor xatoligi [12]; me’yor noaniqligi [4]
Eskalatsiya	O‘qituvchi bilan suhbat → kafedra → dekanat; haqorat va tahdid holatlari dalillar bilan rasmiy tartibda ko‘riladi	Pedagog sha’nining huquqiy himoyasi [5]

Izoh: SI — sun’iy intellekt; tavsiya etilgan muddat va qoidalar har bir OTM ichki tartibiga moslashtiriladi.

Olingan natijalarni talqin qilishda ayrim cheklovlarni hisobga olish lozim. Tahlil qilingan tadqiqotlarning aksariyati AQSh, Yevropa va Avstraliya sharoitida, ko‘p hollarda maktab ta’limida o‘tkazilgan; EIning o‘z-o‘zini baholashga asoslangan o‘lchovlari qobiliyat testlariga nisbatan kuchsizroq bog‘liqlik ko‘rsatadi (ρ = 0,12 ga qarshi 0,24) [13]; SI-detektorlar tadqiqoti mualliflari esa tanlanma kichikligini va baholangan detektorlar asosan avvalgi avlod til modellariga tayanganini qayd etgan [12]. Shu bois “5T” modeli va reglament O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida milliy muloqot madaniyati — “ustoz–shogird” an’anasi, kattalarga hurmat va so‘z odobi — xususiyatlarini hisobga olgan holda tajriba-sinovdan o‘tkazilishi zarur.

Xulosa: O‘tkazilgan tahlil raqamli muloqot pedagogik konfliktlarning kelib chiqish omillarini sezilarli darajada o‘zgartirganini ko‘rsatdi: nizolar endi ko‘proq “niyat — talqin” uzilishi, ish vaqti chegaralarining yo‘qolishi, videomuloqot charchog‘i va SI bilan bog‘liq ishonchsizlikdan kelib chiqmoqda. Xalqaro dalillarga ko‘ra, elektron xatda hissiy ohangni to‘g‘ri tushunish ulushi yuzma-yuz muloqotdagidan past (62,8 % ga qarshi 73,9 %), Stenford sinovida SI-detektorlar ona tili bo‘lmagan mualliflar insholarini o‘rtacha 61 foiz hollarda noto‘g‘ri belgilagan. Bu natijalar raqamli kanalda talab qo‘yishdan avval vaziyatni aniqlashtirish va muloqot qilish muhimligini ko‘rsatadi.

EI va empatiya o‘lchanadigan va o‘rgatiladigan ko‘nikmalardir: ular talabaning o‘zlashtirishi (ρ = 0,20), o‘qituvchining kasbiy “yonib ketish”dan himoyalanishi va konfliktda hamkorlik strategiyasini tanlash bilan bog‘liq. Empatik yondashuv pedagogik talabni yumshatmagan holda jazolash choralarini ikki baravar qisqartira olishi talabchanlik va hurmat birligini zamonaviy pedagogik muloqotning markaziy tamoyili sifatida qayta tasdiqlaydi.

Taklif etilgan “5T” modeli (To‘xta, Tushun, Tan ol, Talabni aniq qo‘y, Tasdiqla) va raqamli muloqot reglamenti oliy ta’lim muassasalarida mahalliy sharoitda sinovdan o‘tkazilgach qo‘llanishi mumkin. Talabalar uchun amaliy tavsiya shundan iborat: muhim xabarni yuborishdan oldin uni adresat o‘rnida, betaraf ohangda ovoz chiqarib o‘qib ko‘rish; keskin xabarga darhol javob yozmaslik; baho bo‘yicha e’tirozni mezon va dalil bilan belgilangan kanal orqali yuborish; SIdan foydalanganda qoralama va versiyalar tarixini saqlash. Keyingi tadqiqotlarda modelning samaradorligini tajriba-

sinov orqali — EI darajasi, konfliktlar soni va ularni hal etish muddati ko‘rsatkichlari bo‘yicha — baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kemp S. Digital 2026: Uzbekistan [Elektron resurs]. – DataReportal, 2025. – URL: https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan
2. OECD. Results from TALIS 2024: The State of Teaching. – Paris: OECD Publishing, 2025. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/results-from-talis-2024_90df6235-en.html
3. Freeman J. Student Generative AI Survey 2025. HEPI Policy Note 61. – London: Higher Education Policy Institute, 2025. – URL: https://www.hepi.ac.uk/wp-content/uploads/2025/02/HEPI-Policy-Note-61.pdf
4. Gruenhagen J. H., Sinclair P. M., Carroll J.-A., Baker P. R. A., Wilson A., Demant D. The rapid rise of generative AI and its implications for academic integrity: Students’ perceptions and use of chatbots for assistance with assessments // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 7. – Article 100273. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.caeai.2024.100273
5. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-6786401
6. Kruger J., Epley N., Parker J., Ng Z.-W. Egocentrism over e-mail: Can we communicate as well as we think? // Journal of Personality and Social Psychology. – 2005. – Vol. 89, № 6. – P. 925–936. – DOI: https://doi.org/10.1037/0022-3514.89.6.925
7. Fauville G., Luo M., Queiroz A. C. M., Bailenson J. N., Hancock J. Zoom Exhaustion & Fatigue Scale // Computers in Human Behavior Reports. – 2021. – Vol. 4. – Article 100119. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.chbr.2021.100119
8. Fauville G., Luo M., Queiroz A. C. M., Bailenson J. N., Hancock J. Video-conferencing usage dynamics and nonverbal mechanisms exacerbate Zoom Fatigue, particularly for women // Computers in Human Behavior Reports. – 2023. – Vol. 10. – Article 100271. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.chbr.2023.100271
9. Park Y., Liu Y., Headrick L. When work is wanted after hours: Testing weekly stress of information communication technology demands using boundary theory // Journal of Organizational Behavior. – 2020. – Vol. 41, № 6. – P. 518–534. – DOI: https://doi.org/10.1002/job.2461
10. Asterhan C. S. C., Rosenberg H. The promise, reality and dilemmas of secondary school teacher–student interactions in Facebook: The teacher perspective // Computers & Education. – 2015. – Vol. 85. – P. 134–148. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.compedu.2015.02.003
11. Kopecký K., Szotkowski R. Specifics of cyberbullying of teachers in Czech schools – A national research // Informatics in Education. – 2017. – Vol. 16, № 1. – P. 103–119. – DOI: https://doi.org/10.15388/infedu.2017.06
12. Liang W., Yuksekgonul M., Mao Y., Wu E., Zou J. GPT detectors are biased against non-native English writers // Patterns. – 2023. – Vol. 4, № 7. – Article 100779. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.patter.2023.100779
13. MacCann C., Jiang Y., Brown L. E. R., Double K. S., Bucich M., Minbashian A. Emotional intelligence predicts academic performance: A meta-analysis // Psychological Bulletin. – 2020. – Vol. 146, № 2. – P. 150–186. – DOI: https://doi.org/10.1037/bul0000219
14. Mérida-López S., Extremera N. Emotional intelligence and teacher burnout: A systematic review // International Journal of Educational Research. – 2017. – Vol. 85. – P. 121–130. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.ijer.2017.07.006
15. Valente S., Lourenço A. A. Conflict in the classroom: How teachers’ emotional intelligence influences conflict management // Frontiers in Education. – 2020. – Vol. 5. – Article 5. – DOI: https://doi.org/10.3389/feduc.2020.00005

16. Mattingly V., Kraiger K. Can emotional intelligence be trained? A meta-analytical investigation // Human Resource Management Review. – 2019. – Vol. 29, № 2. – P. 140–155. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.hrmr.2018.03.002

17. Cipriano C., Strambler M. J., Naples L. H. [et al.] The state of evidence for social and emotional learning: A contemporary meta-analysis of universal school-based SEL interventions // Child Development. – 2023. – Vol. 94, № 5. – P. 1181–1204. – DOI: https://doi.org/10.1111/cdev.13968

18. Konrath S., Martingano A. J., Davis M., Breithaupt F. Empathy trends in American youth between 1979 and 2018: An update // Social Psychological and Personality Science. – 2025. – Vol. 16, № 3. – P. 252–265. – DOI: https://doi.org/10.1177/19485506231218360

19. Okonofua J. A., Paunesku D., Walton G. M. Brief intervention to encourage empathic discipline cuts suspension rates in half among adolescents // Proceedings of the National Academy of Sciences of the USA. – 2016. – Vol. 113, № 19. – P. 5221–5226. – DOI: https://doi.org/10.1073/pnas.1523698113

20. Reeve J., Cheon S. H. Autonomy-supportive teaching: Its malleability, benefits, and potential to improve educational practice // Educational Psychologist. – 2021. – Vol. 56, № 1. – P. 54–77. – DOI: https://doi.org/10.1080/00461520.2020.1862657

21. Brackett M. A., Bailey C. S., Hoffmann J. D., Simmons D. N. RULER: A theory-driven, systemic approach to social, emotional, and academic learning // Educational Psychologist. – 2019. – Vol. 54. – P. 144–161. – DOI: https://doi.org/10.1080/00461520.2019.1614447

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalish	Bet
1	NORMURODOVA ZARINA MUXTOROVNA	ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	PEDAGOGIKA	6
2	G'AYBULLAEVA NARGIZAXON XASANOVNA	ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANGAN AYOLLARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI	PEDAGOGIKA	13
3	SOLIJONOVA SHOIRAXON NU'MONJON QIZI	TA’LIM JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ORQALI INDIVIDUAL RIVOJLANISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH	PEDAGOGIKA	17
4	URAZIMBETOVA GULJAMAL QARJAWBAEVNA	UY SHAROITIDA YAKKA TARTIBDA TA’LIM OLUVCHI MAKTAB O‘QUVCHILARINING O‘QUV MOTIVATSIYASI VA MUSTAQIL TA’LIM KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	23
5	AXMEDOVA ZARINA RAHMAT QIZI	BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA FASILITATORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHAVIY TA’LIMGA ASOSLANGAN MODELI VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	PEDAGOGIKA	29
6	ABDULLAYEVA SHOIRA HAMIDOVNA	SUN’IY INTELLEKT BILAN MULOQOTNING YOSHLAR PSIXOLOGIK FAROVONLIGIGA TA’SIRI: EMOTSIONAL QARAMLIK, IJTIMOIY YOLG‘IZLANISH VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	36
7	MURODILLOYEV NODIR BAXODIR O'G'LI	RAQAMLI MULOQOT SHAROITIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI EMOTSIONAL INTELLEKT ASOSIDA KONSTRUKTIV BOSHQARISH: XALQARO DALILLAR TAHLILI VA AMALIY MODEL	PSIXOLOGIYA	41

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 8-oktabrda 1899689-sonli guvohnoma asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro viloyati, Buxoro sh., To'qimachi MFY, Xujamushkin ko’chasi, 33-4-uy
Elektron manzil: https://aspec.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 9-Son.